



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
TOSHKENT "TEMURBEKLAR MAKTABI"
HARBIY-AKADEMİK LITSEYI

"TEMURBEKLAR MAKTABI"
HARBIY AKADEMİK LITSEYLARIDA
ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI
respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

Toshkent shahri, 2021 yil 28 sentabr



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
TOSHKENT "TEMURBEKLAR MAKTABI"
HARBIY-AKADEMIK LITSEYI**

**"TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY AKADEMIK
LITSEYLARIDA ZAMONAVTY TA'LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

Toshkent shahri, 2021 yil 28 sentabr

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylarida zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi, 2021.- 313 b.

Konferensiya materiallari O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi Pedagogik kengashida muhokama qilingan va nashunga tavsiya etilgan. 2021 yil “23” sentabr kuni dagi 2-sonli bayonnoma.

Mazkur to’plamda O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi sohaviy xizmatlari, respublikamizning yetakchi oliy-harbiy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari hamda sohaviy mutaxassislar bilan hamkorlikda o’tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylarida zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etish istiqbollari uning muammolari va yechimi bo’yicha mavjud bo’lgan ayrim muammolarni aniqlab, ularning yechimini topish, ushbu sohadagi ma’humotlar bilan tanishish hamda yetakchi tashkilot va muassasalar mutaxassislari bilan o’zaro tajriba almashish maqsadida tayyorlangan ma’ruzalar keltirilgan.

Ushbu to’plam bo’limma komandirlari, oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, kursant va tinglovchilari, ilmiy izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchilar, shuningdek, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari uchun mo’ljallangan.

Mualliflarning nuqtai-nazarlariga putur yetkazmaslik maqsadida to’plamga kiritilgan materiallar faqatgina texnik jihatdan tahrir qilingan, shuning uchun tahrir hay’ati matnlarda uchraydigan ba’zi bir noaniqliklar uchun javobgarlikni o’zidan soqit qiladi.

Tahririyat hay’asi: t.f.n., dots. Sh.M.Asrakov, t.f.n. I.Yu.Imoyatov, bosh o’qituvchi M.M.Komilova, yetakchi o’qituvchi D.A.Uljayeva, bosh o’qituvchi M.A.To’xtaboyeva, bosh o’qituvchi D.S.Nuriddinova, katta o’qituvchi B.Sh.Rahmonova, bosh o’qituvchi Y.U.Irisboyeva, bosh o’qituvchi L.Yu.To’rayeva, bosh o’qituvchi G.R.Xasanova, katta o’qituvchi A.A.Axmedjanov.

Konferensiya konibi: Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyoti bosh o’qituvchisi N.M.Ishmatova.

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MILLIY QAHRAMONLARIMIZNING O'RNI

Xoliqov I. R., Jumayev F. Sh.
Buxoro davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qahramonlarimizning jasoratlariga tayanib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish haqida so'z yuritiladi. Maqola vatanparvarlik tarbiyasining millatimiz qahramonlari bilan bog'liqligiga ishora sifatida foydalanish mumkinligini anglatadi.

Kalit so'zlari: Vatan, vatanparvarlik, jasorat, yosh avlod, milliy qahramon, ta'lim tarbiya, mafkura, g'oya.

XXI asr shiddat bilan o'zgarayotgan yangi texnologiyalar asri sifatida e'tirof etiladi. Jahanoning mafkuraviy manzarasi tubdan o'zgarib bo'moqda. Turli mamlakatlarda sodir etilayotgan negativ voqeа va hodisalarning aksar qismi yoshlar tomonidan amalga oshirilishi kuzatilmоqda. Jangovar harakатtlar, ichki nizolar tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoqarashi hali shakllanmagan yoshlar turli oqimlar ta'siriga tushishlari natijasida qo'poruvechilik ishlari, ommaviy tartibsizliklar sodir etilishi tendensiyasi kuzatilmоqda. Vatanparvarlik tarbiyasi asrlar osha o'zining zamонавиyligini yo'qotmagan amallardan hisoblanadi. Bugungi kun yoshlari, jumladan bo'lajak Vatan himoyachilari uchun vatanparvarlik tarbiyasi dolzarb mavzu sanaladi.

Vatan, vatanparvarlik haqida so'z borar ekan, eramizdan avval yashab ijod etgan faylasuf hamda donishmand Sitseron jumladan shunday degan edi: "Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina "Vatan" oti so'zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?"

Dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqaro raqobat shartlariga kirib borayotgan bir paytda, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashda ularda Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish kabi jihatlarni shakllantirishda millatimiz qahramonlarining hayot yo'llari yetakchi o'rin egallamog'i darkor.

Vatanparvarlik – bu insomning, ona Vataniga, o'z millati hamda tug'ilib o'sgan madaniy muhitiga bo'lgan muhabbatidir. Vatanparvarlikning bu tabiiy asoslari, tabiiy tuyg'u sifatida uning axloqiy ahamiyatini har bir insonda burch va fazilat sifatida birlashtiradi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bir qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2018 yil 23 fevraldag'i 140- sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi qarori shular jumlasidandir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ayniqsa milliy qahramonlarimiz, ota-bobolarimizning vatan, yurt uchun fidoyiliklari tarbiya jarayoniga ijobiyligi ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Har bir yosh avlodning ong-u shuuriqa, buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning vatan ravnaqi, yurt tinchligi uchun qahramonliklarini singdira olsakgina, haqiqiy millatparvar, jonkuyar, sha'mi, qadr-qimmati, millatini ulug'lay oladigan vatan uchun jonini fido qilishga tayyor shaxsni tarbiyalay olamiz.

Millat farzandlarining tomirida oqayotgan qoni, ulami o'tmishdagi ota-bobolari bilan bevosita bog'lab turuvchi rishta hisoblanadi. Yosha avlod tarbiyasida doimiy ravishda o'tmishimizga suyanamiz va tayanamiz. Shu o'rinda, bobokalonimiz shoh va buyuk sarkarda Boburning jasorati yosha avlodning tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ajralmas jarayon hisoblanadi. Vatandoshlarimiz haqidagi buyuk shaxslarning fikrlari nafaqat yosha avlod balki vatanimiz taqdiri bilan o'z taqdirini bog'lagan barcha yoshdagi insonlarga g'urur bag'ishlaydi. Misol tariqasida Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlal Neru fikrlariga qulqoq solsak u: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga,

arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir - birlariga tutashib ketdi” deb yozgan edi.

Butun dunyoni larzaga solgan Chingizzonday shaxs, jumladan vatandoshimiz Jaloliddin Manguberdi haqida shunday degan ekan: “Agar Jaloliddinday mard va jasur o‘g‘lim bo‘lganida dunyoni zabit etgan bo‘lardim”.

Vatandoshlarimiz tomonidan amalga oshirgan ezgu ishlar, qoldirgan madaniy meroslari, jahon sivilizatsiyasida alohida o‘ringa ega. Millatimiz qahramonlari tomonidan amalga oshirilgan har qanday xayrli ishlar, yurtimiz yoshlari qalbida chuqur iz qoldirib, vatanparvarlik hissini singdira oladi. Biz ta’lim-tarbiya jarayonida millatimizning fidoyi va jonkuyar insonlanining qahramonliklarini yoshlarimiz ong-u shuuriga singdira olsak, vatanparvar insonni tarbiyalashday murakkab vazifani bajargan bo‘lamiz. Harbiylarda vatanparvarlik tushunchasi, ularning kundalik faoliyatları bilan bevosita bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Bo‘lajak ofitserlami vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, yurt tinchligi uchun muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Zero, vatan tushunchasi ona so‘zi bilan chambarchas bog‘liqidir. Haqiqiy vatanparvar mard va jasur vatan himoyachilari yurt tinchligi posbonidir.

Foydalanilgan adabiyyotlar ro‘yxati:

1. Javoharlar Neru Hindistonni kashf etish kitobi;
2. Nurali Qobil “Buyuk To‘ron amiri yoki aql va qilich”;
3. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/tafakkur-gulshani/axloqning-asosiy-prinsiplari-xususida>.

CREATING A MODERN LEARNING ENVIRONMENT

Kalmenova M. M.

Nukus military academic lyceum "Temurbeklar maktabi"

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi, hozirgi ta’lim tizimining ba’zi muhim xususiyatlarini o‘rganish orqali, mavjud ta’lim sharoitida zamонави о‘кув мухитини ўаратиш хақида тушунча ўаратиш ва о‘кувчиларинг о‘кув jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirishdan iborat.

	language	
Ahmadjonova N.A.	"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarini ma'nnaviy va madaniy rubda tarbiyalash muhim masala	233
Odilov N.E.	The role of the english language in modern society	239
Polvonov J.A.	Tarix darslarida tafakkur, ko'nikma va malsakalarni hosil qilishda pedagogik texnologiyalarning shamiyati	242
Rasulov A.U.	Making use of real and authentic materials in english classes	247
Odilova K.T.	The teachers' teaching methods in organizing educational communication in foreign language lessons at academic lyceums	249
Мазидова Н.И.	Усмур ётларни ўкувчилар нутхини тақлилантириши	254
Shakirova N.A.	Huquqiy fanlari o'qitishda "Ispring suite 8" dasturidan foydalanishning shamiyati	259
Musayev R.K., G'aybullayev G'.G'.	Harbiy mahoratning yosh kadrlar tarbiyasidagi o'mni va roli	266
Baxtiyorov J.G', Qadamboyev U.H.	Harbiy ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'mni	269
Jumamuratova K.O.	Implementing "engage, study, activate" and "presentation, practice production" methods into teaching practices.	272
Xoliqov I.R., Jumayev F.Sh.	Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida milliy qahramonlarimizning o'mni	276
Kalmenova M.M	Creating a modern learning environment	278
Nurillayev B.B.,	O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari harbiy	282

**“TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY AKADEMIIK
LITSEYLARIDA ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

Toshkent shahri, 2021 yil 28 sentabr

**Muharrir: t.f.n. Inoyatov I.Yu.
Texnik muharrir: Irisboyeva X.U., Shakirova N.A.**

Bosishga ruxsat etildi: 27.09.2021 y. Buyurtma № 80. Bichimi 60x84/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulda chop etildi.
Sharqli bosma tabog‘i 19,62. Adadi 20 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi